

TILSHUNOSLIKDA KINODISKURS TAHLILI VA NAZARIY ASOSLARI

Ollomurodov Arjunbek Orifjonovich

Osiyo xalqaro universiteti

Tarix va filologiya kafedrasida ingliz tili fani o'qituvchisi

E-mail: ollomurodovarjunbekorifjonovich@oxu.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10122319>

Annotatsiya. Hozirgi kunga qadar kinodiskurs aniq ta'rifga ega emas va u semiotika, psixologiya, lingvokulturologiya, sotsiologiya, tarjimashunoslik fanlari nuqtai nazaridan tahlil qilinmoqda. Mazkur maqolada kinodiskursning verbal va vizual aspektlari o'rtasidagi bog'liqlik, turli xil belgilarning o'zaro ta'siri, shuningdek, kinodiskurs va boshqa diskurslar o'rtasidagi munosabatlar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: diskurs, nutq, verbal, nonverbal, vizual komponent, kognitiv-kommunikativ, semiotik belgi, muloqat usuli, kino tili.

CINEMA DISCOURSE ANALYSIS AND THEORETICAL FOUNDATIONS IN LINGUISTICS

Abstract. Until now, film discourse does not have a clear definition, and it is analyzed from the point of view of semiotics, psychology, linguistics, sociology, translation studies. This article discusses the relationship between the verbal and visual aspects of film discourse, the interaction of various symbols, as well as the relationship between film discourse and other discourses.

Key words: discourse, speech, verbal, non-verbal, visual component, cognitive-communicative, semiotic sign, method of communication, film language.

АНАЛИЗ КИНОДИСКУРСА И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЛИНГВИСТИКИ

Аннотация. До сих пор кинодискурс не имеет четкого определения и анализируется с точки зрения семиотики, психологии, лингвистики, социологии, переводоведения. В данной статье рассматривается соотношение вербального и визуального аспектов кинодискурса, взаимодействие различных символов, а также соотношение кинодискурса с другими дискурсами.

Ключевые слова: дискурс, речь, вербальный, невербальный, визуальный компонент, когнитивно-коммуникативный, семиотический знак, способ общения, киноязык.

Zamonaviy tilshunoslikda bir qator yangi sohalarini tadqiq qilish ishlarining amalga oshirilishi, shuningdek, til taraqqiyotini izohlash jarayonida inson omilini chuqurroq o'rganish ushbu yo'nalishda turli tarmoqlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Zero, til va tafakkur masalalari har bir til foydalanuvchisining milliy ruxini hamda lisoniy dunyo manzarasini aks ettiruvchi omillardan biri sanaladi. Tilshunoslikka kinodiskurs atamasining kirib kelishi diskurs tushunchasi haqidagi tasavvurlarimiz birmuncha kengayishiga sabab bo'ldi. Kundalik so'zlashuv diskursidan farqli ravishda kinodiskurs yozma nutq (ssenariy), og'zaki nutq (dialoglar) bilan bir qatorda qo'shimcha vizual komponentlarni ham o'z ichiga qamrab oladi.

Hozirgi tilshunoslikda yangi yo'nalishlar sifatida tan olingan pragmatik va kognitiv tilshunoslikning asosiy muammolaridan biri diskurs masalasidir. Diskurs lotincha discursus - muhokama so'zidan olingan bo'lib, hissiy, bevosita, intuitiv, ya'ni muhokamatalab bilimdan farqli

o'laroq, muhokama orqali vosita bilan hosil qilinadigan mantiqiy dalil - isbotli bilim demakdir. Diskurs tushunchasi lingvistik atama sifatida o'tgan asrning o'rtalarida tilshunoslikka kirib keldi. Tilshunoslikda u dastlab gap yoki nutqda bog'langan va kelishilgan oqibat sifatida tushunilgan bo'lsa, zamonaviy lingvistikada murakkab kommunikativ hodisa sifatida izohlanmoqda.

A.N.Zaretskaya kinodiskursni "noverbal komponentlar sirasiga kiruvchi audio-vizual ketma-ketlik bilan birgalikda boshqa ekstralingvistik omillarni qamrab oluvchi filmning verbal tarkibiy qismi bo'lgan izchil matn"¹ sifatida tushunadi. Chunki kinodiskurs orqali tilning lingvislik hamda ekstralingvistik voqealanish jarayonini yaqqol kuzatish va his qilish mumkin. Filmni tomosha qilish jarayonida tomoshabin ekranga olib chiqilgan kino va kundalik so'zlashuv diskursi o'rtasidagi kichik farqlarga e'tibor qaratmasa-da, aynan shu kabi tafovutlar til tabiatini yanada chuqurroq anglab yetishimizda katta ahamiyat kasb etishi mumkin. Masalan, kundalik so'zlashuv diskursida so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilish, suhbatdosh bilan bir vaqtning o'zida gapirib yuborish yoki o'z nutqini (aytilgan fikr) to'g'rilab ketish kabi holatlar ko'p uchrasa, kinodiskursda esa bu holatga kamdan-kam duch kelamiz.² Ushbu yaqqol misollar orqali kinodiskursni kundalik diskursdan ajratib olish birmuncha osonlashadi.

Ye.A. Kolodina kinodiskursni "filmni tomosha qilish va idrok etish jarayonini aslida filmning tub mohiyati bir necha semiotik tizimlarning o'zaro ta'siri vositasida yuzaga chiqishi natijasidir. Kinodiskursni tadqiq qilish deganda, uning eng muhim komponentlari, ularning bir-biri bilan aloqasi, shuningdek, mahalliy va xorijiy kinotomoshabinlar mansub bo'lgan mentalitet va madaniyatni hisobga olgan holda kino matnini idrok etish jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish tushuniladi. Kinodiskurs nutq ishtirokchilari, ularning o'zaro muloqotga kirishish vaqti va makonini o'z ichiga oladi³ deb ta'riflaydi.

Shunday qilib, S.S.Kolodinaning kinodiskursga bergan ta'rifini atroflicha tahlil qilganimizdan so'ng, olimaning nuqtai nafari Ye.A.Zaychenkoning yondashuviga aynan o'xshash ekanligining guvohi bo'ldik. S.S.Kolodina qo'shimcha qilib, filmning tub mohiyati va kinotomoshabin tomon yo'naltirilayotgan "ma'lumot" ning asl maqsadi verbal va vizual semiotik belgilar yordamida yuzaga chiqishini qayd etgan. Shuni ta'kidlash kerakki, verbal va vizual komponentlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, kinodiskursning umumiy tuzilishida bu komponentlarning hech birini bir-biridan ajratib bo'lmaydi.

Kino - bu tarqatish usuli (ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda) nuqtai nazaridan media matn hisoblanadi. Media matni axborotni o'z ichiga olgan va har qanday shakl va janrdagi ommaviy axborot vositalarida (gazeta maqolasi, teleko'rsatuv, videoklip, film va boshqalar) taqdim etiladigan xabardir, media (ommaviy axborot vositalari) esa "texnik" axborotni yaratish, qayd etish, nusxalash, takrorlash, saqlash, tarqatish, idrok etish va uning subyekt (kommunikator) va obyekt (kommunikator) o'rtasida almashinuvini bildiradi. Bundan tashqari, kinodiskursda muloqot maqsadi, muloqot usuli va kommunikativ vaziyat kabi parametrlarning mavjudligi ham muhim hisoblanadi. S.S.Kolodinaning fikriga qo'shilgan holda aytishimiz mumkinki, yuqorida sanab o'tilgan kinodiskurs uchun muhim bo'lgan komponentlarning

¹ Зарецкая А.Н. Особенности реализации подтекста в кинодискурсе: дис. ... канд. филол. наук. – Челябинск, 2010. – С. 61-64.

² Richardson K. Television Dramatic Dialogue. A Sociolinguistic Study. – New York: Oxford, 2010. – P. 63-105

³ Колодина Е.А. Статус кинодиалога в ряду соположенных понятий: кинодиалог, кинотекст, кинодискурс // Вестник Нижегородского университета им. Н.И.Лобачевского, №2. 2013. – С. 327-333.

ishtirokisiz har tomonlama qo'yilgan talablarga javob bera oladigan badiiy kino asar yaratish imkonsiz.

Kinodiskursni kognitiv-kommunikativ shakllanish, yaxlitlik, izchillik, tugallanganlik va maqsadlilik jihatlarini bilan ajralib turadigan turli semiotik birliklar majmuyi sifatida tushunish o'rinli bo'ladi. Kino nutqining ta'riflaridan biri S. S. Nazmutdinovaga tegishli bo'lib, u kino nutqini "muallif va kino oluvchi o'rtasidagi tillararo va madaniyatlararo makonda kino tili yordamida kechadigan semiotik jihatdan murakkab, dinamik o'zaro ta'sir jarayoni" deb ta'riflaydi. Kinodiskursda muallif o'z maqsadlariga qarab bir vaqtning o'zida bir yoki bir necha qush turlarining vizual variantlarini taklif qilib, olam haqidagi manzaramizni o'zgartirishga qodir. Boshqacha qilib aytganda, kinodiskurs va kundalik so'zlashuv diskursi vizual aspektlari o'rtasidagi asosiy farq shundaki, kinodiskursda tasvirlar tashqi omildan, ya'ni rejissyorning dunyoqarashi, olam haqidagi bilimi asosida vujudga kelsa, kundalik so'zlashuv diskursida esa ichkarida (miyamizda) hosil bo'ladi.

Kundalik so'zlashuv diskursi va kinodiskurs o'rtasidagi tafovut shundaki, birinchisi verbaldir, kinodiskurs esa ba'zan to'liq vizual yoki ko'pincha verbal va vizual komponentlar hamohangligida namoyon bo'ladi.

Kinodiskursni boshqa diskursdan ajratib turuvchi yana bir jihat unda ham akustik, ham vizual kanallarning mavjudligi bilan xarakterlanadi; kinodiskursni lingvokulturologiya doirasida tahlil qilish dolzarb hisoblanadi, chunki u milliy mentalitet, stereotiplar va qadriyatlar tizimini aks ettiruvchi milliy-madaniy koddir. Aynan shu jihati bilan ham tarjimada bir talay qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Kinodiskurs esa diskursning eng yangi turlaridan biri hisoblanib, kinomatn, kinodialog, kinosyujet, kinoobraz, kinokontekst va boshqa zamonaviy tilshunoslik muhokama qilishi kerak bo'lgan yangi dolzarb muammolarni yuzaga keltirdi. Kinodiskursning turli kontekstlarida qo'llaniladigan nutq aktlarining lingvomadaniy nuqtai-nazardan shartlanishini tadqiq qilish esa tadqiqotning asosiy dolzarbligini belgilab beradi.

REFERENCES

1. Richardson K. Television Dramatic Dialogue. A Sociolinguistic Study. – New York: Oxford, 2010. – P. 63-105
2. Колодина Е.А. Статус кинодиалога в ряду соположенных понятий: кинодиалог, кинотекст, кинодискурс // Вестник Нижегородского университета им. Н.И.Лобачевского, №2. 2013. – С. 327-333.
3. Зарецкая А.Н. Особенности реализации подтекста в кинодискурсе: дис. ... канд. филол. наук. – Челябинск, 2010. – С. 61-64.
4. Orifjonovich, O. A. (2023). COGNITIVE-DISCURSIVE APPROACH TO THE ANALYSIS OF FILM DISCOURSE. International Journal Of Literature And Languages, 3(10), 25-31.
5. Orifjonovich, O. A. (2023). KINODISKURS LINGVISTIK SISTEMANING BIR QISMI SIFATIDA. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(23), 208-211.
6. Sulaymonovna, Q. N., & Orifjonovich, O. A. (2023, May). XOLID HUSAYNIYNING ASARLARI TARJIMALARIDA KONSEPTUAL METAFORALAR TALQINI VA

- TAHLILI. In Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes (pp. 147-150).
7. Ollomurodov, A. (2023). MULTIDISCIPLINARY AND INTERDISCIPLINARY STUDY OF METAPHOR. *Modern Science and Research*, 2(9), 136-139.
 8. Orifjonovich, O. A. (2023). METAFORANING KO'P TARMOQLI VA FANLARARO O'RGANILISHI.
 9. Sulaymonovna, Q. N., Tashpulatovna, K. M., & Orifjonovich, O. A. (2023). COGNITIVE AND LINGUOCULTURAL CHARACTERISTICS OF METAPHORS. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(3), 849-854.
 10. Sulaymonovna, Q. N., & Orifjonovich, O. A. (2022). KONSEPTUAL METAFORALARNING LINGVOMADANIY HAMDA KOGNITIV XUSUSIYATLARI VA TIL TARAQQIYOTIDA TUTGAN ORNI. *Scientific Impulse*, 1(3), 594-600.
 11. Sulaymonovna, Q. N., & Orifjonovich, O. A. (2022). KONSEPTUAL METAFORALARNING LINGVOMADANIY HAMDA KOGNITIV XUSUSIYATLARI VA TIL TARAQQIYOTIDA TUTGAN ORNI. *Scientific Impulse*, 1(3), 594-600.
 12. Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF WOMEN IN NEIGHBORHOOD MANAGEMENT IN UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(9), 132-135.
 13. Shokir o'gli, U. S. (2023). MILLIY QADRIYATLARIMIZ ASROVCHISI. *Journal of new century innovations*, 35(1), 79-80.
 14. Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF THE NEIGHBORHOOD IN THE SOCIAL DEVELOPMENT OF SOCIETY. *Modern Science and Research*, 2(10), 755-757.
 15. Shokir O'g'li, S. U. (2023). THE IMPORTANCE OF THE MAHALLA SYSTEM'S REFORMATIONS IN NEW UZBEKISTAN. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(10), 25-30.
 16. Sadullayev, U. (2023). O'zbekistonda xotin-qizlarga berilayotgan e'tibor: mahalla boshqaruvida xotin-qizlarning roli. In *Oriental Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 551-556). OOO «SupportScience».
 17. Shokir o'g'li, S. U. (2023). MAHALLANING JAMIYAT IJTIMOYIY TARAQQIYOTIDAGI O'RNI. *Научный Фокус*, 1(6), 369-371.
 18. Ikhtiyorovna, K. G. Z. (2023). MASTERING THE ART OF EFFECTIVE SPEAKING AND READING: STRATEGIES FOR IMPROVING SPEAKING AND READING SKILLS. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(10), 32-38.
 19. Karimova, G. (2023). SKIMMING AND SCANNING. *Modern Science and Research*, 2(9), 334-335.
 20. Qurbonova, N. R., & Ikhtiyorovna, K. G. (2023). DEVELOPMENT OF FANTASY GENRE IN 20TH CENTURY. *Intent Research Scientific Journal*, 2(5), 1-5.
 21. Maftunabonu, S. (2023). THE DIFFERENCE BETWEEN TRADITIONAL AND MODERN TEACHING METHODS. *Modern Science and Research*, 2(10), 829-831.

22. Shodieva, M. (2023). MASTERING ENGLISH IN A MONTH: EFFECTIVE STRATEGIES FOR RAPID PROGRESS. In Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education (Vol. 1, No. 19, pp. 83-87).
23. Shodieva, M. (2023). DEVELOPING SUMMARY WRITING SKILL IN ACADEMIC WRITING. *Modern Science and Research*, 2(9), 140-144.
24. Xalilova, K., & Atoyeva, D. (2023). THE USAGE OF IDIOMS IN SPEAKING. *Modern Science and Research*, 2(9), 362-364.
25. Khalilova, K. (2023). ACADEMIC VOCABULARY: HOW TO TEACH AND STUDY IT. *Modern Science and Research*, 2(9), 79-83.
26. Khalilova, K. (2023). MASTERING READING COMPREHENSION: A VITAL SKILL FOR ACADEMIC SUCCESS. *Академические исследования в современной науке*, 2(23), 83-89.
27. Berdiyeva, S. (2023). THE IMPORTANCE OF ROLE PLAYING ACTIVITIES IN IMPROVING LEARNERS' LANGUAGE SKILLS. *Modern Science and Research*, 2(9), 75-78.
28. Utkirovna, B. S. (2023). Characteristics of the Works of Charles Dickens. *European Science Methodical Journal*, 1(3), 24-28.
29. Utkerovna, B. S. (2023). SHUM BOLA ASARINING TARJIMASIDA TARJIMON MAHORATI. DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY", 14(1).
30. Tursunova, M. (2023). BADIY TARJIMA ASARLARDA ASLIYAT MUAMMOSI TADQIQI. *Interpretation and researches*, 1(8).
31. Tursunova, M. (2023). BADIY TARJIMADA LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLAR. *Журнал: Союз Науки и Образования*, 5(2), 12-15.
32. Tursunova, M. R., & Karimov, R. A. (2023). PARALLEL KORPUSDA BADIY ASARALARNING ASLIYAT TARJIMASI TADQIQI.(O'. HOSHIMOVNING "DUNYONING ISHLARI" ASARI ASOSIDA).
33. Fayzullayeva, N. S. qizi . (2023). Theoretical Views on the Use of the Term "Concept" in Cognitive Linguistics. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 3(5), 27–31. Retrieved from <https://www.inovatus.es/index.php/ejine/article/view/1685>
34. Fayzullayeva, N. (2023). USAGE OF THE FLORA IN THE EARLY MODERN ENGLISH POETRY. *Modern Science and Research*, 2(9), 36–39. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24078>
35. Sur'at qizi Fayzullayeva, N., & Kilicheva, M. R. (2022). UOLT UILTMAN NASRIDA "AMERIKA ORZUSI" KONSEPTI. *INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING*, 1(8), 574-576.
36. Durova Shakhnoza Shokirovna. (2023). A PRACTICAL WAY OF STUDYING CONDITIONALS. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(10), 39–43.
37. Durova, S. S. (2023). KEYS TO LEARN LANGUAGE EFFECTIVELY. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(10), 4-6.

38. Ismatovna, I. L. (2017). Listening at lessons of a foreign language. Достижения науки и образования, (5 (18)), 65-66.
39. Ismatovna, I. L. Goals and Techniques for Teaching Grammar. International Journal of Scientific Research and Modern Education, 4(2), 33-34.
40. Bafoeva, R. (2023). INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING SHAKLLANISH VA O'RGANILISH MASALALARI. Научный Фокус, 1(3), 29-31.
41. Bafoeva, R. (2023). INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING KOGNITIV TAHLILI Ingliz va ozbek maqollari tizimlari haqida gap ketganda ularning mohiyati bir-biridan ajralib turishi aniq bo'ladi, chunki ular turli xil tarixiy, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarda rivojlangan, va bu maqoll. World of Science, 6(6), 207-211.
42. Bozorova, R. (2021, September). Methods and Means of Cultivating Kindness iIn the Family of the Uzbek People. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 43-44).
43. Бозорова, Р. III. (2022). “Мехр” тушунчаси: фалсафий таҳлил. Science and Education, 3(4), 1312-1320.
44. Bobohusenov, A. (2023). BUXORO VOHASINING ANTIK DAVRI YODGORLIKLARI. SCHOLAR, 1(28), 298-302.
45. Akmal, B. (2023). QADIMGI BAQTRIYA MADANIYATI VA YODGORLIKLARI TIPOLOGIYASI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(7), 100-102.